

USTRUSHONA GEOGRAFIK O'RNI VA TABIIY IQLIM SHAROYITI

JDPU 2-kurs magistranti

O'rolov Hosilbek Ulug'bek o'g'li

Zarbdor tumani 24 maktab tarix o'qituvchisi

Annotasiya: *Ustrushona geografik o'rni va tabiiy iqlim sharoyiti haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ustrushona geografik o'rni, tabiiy iqlim sharoyiti, Ustrushona Turon zamini*

Ustrushona Turon zaminining qadim va o'rta asr tarixida muhim o'rin egallagan bir bo'lagi, ajralmas qismidir. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining tog' va tog' oldi mavzelari qadimdan aholi zich joylashgan madaniy o'lkalar qatoriga kirgan. Ko'plab chashma, buloq, soy va daryolar havzasida hosil bo'lgan katta kichik bu vohalarda lalmakorlikdan tashqari suniy sug'orish tizimlariga asoslangan dehqonchilik va o'troq hayot ancha qadimdan boshlangan. Bu esa Ustrushonaning mazkur hududlarida muqim istiqomat qiluvchi qadimgi aholining ilk tarqalish davri jarayonlari o'sish dinamikasi va xo'jalik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Ustrushonada mustaqillik yillarida arxeologiya qazuv- tadqiqotlari doirasi ancha kengaydi. Jumladan, Xarkana rustokining ilk o'rta asr yodgorliklari Qing'irtepa, Almantepa, Jalmantepa, Lapaktepa, Nushkent, Xavos, Sag'anaktepa, Eski Xavos, Oqtepa, Qultepa O'rta Osiyoning IX-XII asrlardagi tog'-kon metalurgiyasi makonlaridan biri, Turkiston tizmalarida joylashgan Mik qal'asi ochib o'rganildi. Tadqiqotlar o'tkazilgan yodgorliklar geografik jihatdan – tekislik dasht, tog' oldi va tog' mavzelarda joylashgan. Ustrushonadagi yodgorliklar XX asrning ikkinchi yarmidan 90- yillariga qadar qisman o'rganilgan. Asosiy tadqiqotlar Ustrushonaning sharqiy va janubiy qismi (Tojikiston hududi)da keng qamrovli olib borilgan. Bu erda, N.N. Negmatov, E.D. Saltovskaya, T.P. Kiyatkina, A.K. Mirboboev, R.Z. Avzalov, S.SH. Marafiev kabi arxeologlar tomonidan olib borilgan uzoq yillik izlanishlar natijasida ko'plab yodgorliklar ochib o'rganilgan Biroq, hozirgi vaqtga qadar bu tadqiqotlar O'zbekiston hududida joylashgan yodgorliklardan topilgan moddiy ashyolar bilan qiyosiy solishtirib o'rganilmagan.

O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan Jizzax vohasining tog' va tog' oldi mavzelari qadimdan aholisi zich joylashgan tarixiy madaniy o'lkalar tarixiga kirgan. Sangzor va Zominsuv daryolari ko'plab soy va buloqlar xavzasida hosil bo'lgan vodiylarda lalmikorlikdan tashqari suniy sug'orish tizimlariga asoslangan dehqonchilik- va o'troq xayot ancha qadimdan boshlangan. SHuningdek, vohaning shimoliy va shimoli-g'arbiy sarxadlarida yastangan Mirzacho'l cho'l-dasht mavzellarida arxaik va ilk antiq davrdagi ko'chmanchi chorvadorlar faoliyati arxeologik materiallarda o'z aksini topgan. Bu mavzelardan neolit va bronza davri jamoalarning moddiy madaniyat namunalari qayd

etilganini xisobga olsak bu mo'jaz tarixiy madaniy o'lkada inson istiqomati va xo'jalik yuritish faoliyati ancha qadimdan yo'lga qo'yilgani tasdiqlash mumkin bo'ladi.

O'lkaning katta qismini y er tuzilishi tekisliklardan iborat bo'lgan Mirzacho'l egallagan. U janubi sharqdan shimoli-g'arbga tomon pasayib boradi. Tekislik qismi shimoliy-g'arbga tomon nishab bo'lib, o'rtacha balandligi 250-300 m ga teng. Janubdagi tog' etaklarida balandlik 450-530 m gacha etadi. Janubiy qismi relefini Turkiston tizmalari va uning g'arbiy Morguzar va CHumqartov tog'lari (balandligi 2500-3000 m gacha, Jizzax qismida 800 m) tashkil etadi.

SHimol va shimoli-sharqdan zinapoyasimon shakldagi tekisliklar tog'liklar tomon ko'tarilib boradi. Bu o'lka O'zbekistonning baland va o'rtacha balandlikdagi tog'lar, tog' etaklaridagi tekislik vohalari, sho'rxok va cho'l landshaftliklardan iborat g'oyat noyob mikromintaqani tashkil qiladi. Turkiston tizmasining shimoliy davomi hisoblangan Morguzar tog'ining o'rtacha balandligi 1500-2000 m, ayrim cho'qqilari esa 2621 m ga etadi. U shimol tomon davom etib, Sangzor daryosining vohasi orqali Nurota tog'idan ajraladi. Sangzor vodiysining eng tor joyi Ilon o'tdi darasi (kengligi 120-130 m) hisoblanadi. Ustrushonaning suv manbalariga e'tibor beraylik. Hududning eng yirik suv manbai – Sirdaryo bo'lib, daryo vodiysining Mirzacho'l bilan tutash kengligi 15 km ga etadi. Daryo o'zanining qirg'oqlari tik, vodiya qoldiq o'zanlar uchraydi. Bu qoldiq o'zanlarning ayrimlari ko'l va botqoqliklardan iborat. Ustrushonaning katta qismini egallagan Mirzacho'lni suv bilan ta'minlaydigan barcha shohariq va ariqlar Sirdaryodan boshlanadi. SHimoli-g'arbiy Ustrushonaning asosiy suv manbalari ko'pchilik hollarda janub-shimol yo'nalishi bo'yicha oqadigan daryochalar, soy, buloq va chashmalardan iborat Sangzor daryosi Turkiston tog'larining 3300 m balandlikdagi SHungqor tizmasi shimoliy yonbag'ridagi ikki tog' soyi Guralash va Jontakaning qo'shilishidan hosil bo'ladi va Morguzar tizmasini yoqalab sharqqa, Jizzax tomon oqadi. Uning suv yig'ish maydoni - 2,580 km² ni, ilk manbasidan Qili qishlog'igacha bo'lgan uzunligi 123 km ni tashkil qiladi. Sangzor daryosining o'rtacha suv oqimi miqdori 6,9 m³. sekundga, ba'zi seryomg'ir yillarda eng yuqori holatdagi suv sarfi 250-300 m³ sekundga, sel kelganda 411 m³ sekund teng

Kattaligi jihatidan Sangzor daryosidan keyingi asosiy suv manbai bo'lgan Zominsuv Turkiston tizma tog'larining baland cho'q- qilaridan boshlanuvchi Qashqasuv, Ko'ksuv va Qizilmozor soylarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Uning suv yig'ish maydoni 694 km², uzunligi 41 km ni tashkil etadi. O'tmishda Zominsuv Ustrushonaning Zomin rustoqi va mazkur nom bilan ataluvchi Zomin-Sarsanda shahrining ichimlik va xo'jalik yuritish ishlari ta'minotiga sarflangan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, daryo suvi Mirzacho'l sarhadlarida joylashgan qadimgi Qoratepa shahrigacha etib brogan. Ustrushonaning navbatdagi suv manbai Ravotsoy esa Morguzar tizmalari tarkibiga kiruvchi Etimtog' va Kattatog'ning sharqiy yonbag'irlaridan boshlanuvchi Ko'rpasoy va Uvobsoyning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu soylarning havzasida hosil bo'lgan kichik suvli vodiya turli davrga oid arxeologiya yodgorliklari zich joylashgan va ularning asosiy guruhi Ravot va Uchqiz qishloqlari atrofida jamlangan. Seryog'in yillari va sel kelish

mavsumlarida Ravotsoy suvi Yoyilma qishlog'igacha (50 km) etib borgan. Sayxonsoy bulog'i Morguzarning shimoli – sharqiy yonbag'ridagi 1000 m chamasi balandlikdagi Og'ajon ungirilaridan boshlanadi. Sayxonsoy ancha kamsuv bo'lsa-da, uni havzasidagi Xasangoba, Quduqcha, Sayxon, Tuyoqli qishloqlarining asosiy suv manbai hisoblanadi. SHuningdek, o'rganilayotgan mintaqada Turkmansoy, Achchisoy, Qo'shchisoy, Jaloyirsoy kabi daryocha va soylar ham mavjud bo'lib, ular ham Turkiston tizmasining shimoliy yon bag'ridan boshlanadi. YUqorida sanab o'tilgan soylarning suvi bahorda biroz ko'payib, yozda kamayadi, ba'zilari umuman qurib qoladi. Jizzax vohasining shimoliy qismi va Sangzorning quyi oqimida Tuzkon ko'li joylashgan. U hududda mavjud bo'lgan yagona ko'ldir. 1895 yil ma'lumotlariga ko'ra, ko'l yildan – yilga qurib borgan. 1920 yillarda Tuzkonning hajmi 100 km² dan 40 km² gacha qisqargan. XX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'l cho'lini keng miqyosda o'zlashtirilishi, sho'r yerlarni yuvish va sizot suvlarni tashlash natijasida, Tuzkon va uning atrofida, Arnasoy botig'i deb ataluvchi katta hududda, umumiy maydoni 2300 km² dan oshiq Arnasoy ko'llar tizimi hosil bo'lgan. Ustrushonada yer tuzilishiga ko'ra, och va tipik bo'z tuproqlar tarqalgan. Ular orasidagi chegara taxminan 450 m balandlikdan o'tadi. Bu hududning janub va janubi-g'arbiy qismi asosan tekis qalin lyossimon qumoq va qumloqlar bilan qoplangan. Past joylari (markaziy va shimoli-g'arbiy qismi)ni sho'rhoq va sho'rtob tuproqlar egallagan. Mintaqada och tusli bo'z tuproqlar, daryo bo'ylarida o'tloq va o'tloq-botqoq tuproqlar keng tarqalgan bo'lib, bu yerlar turli xildagi o'simliklar va to'qayzorlarga boy.

O'lkada cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalariga xos o'simliklar mavjud. Cho'l hududlari sho'ro'zak, qorabosh, burgan, lolaqizg'aldoq kabi efemerlar va kurg'oqchilikka chidamli shuvoq, yantoq, chalov, sho'ra, yulg'un va tuyaqorin kabi o'simliklarga boy. Tog' etaklari va undan yuqorida irg'ay, zirk, pista, yovvoyi bodom, na'matak, olma, olcha, saksovul kabi buta va daraxtlar o'sadi. Turkiston tog' tizmasining 1500-2500m dan balandlik qismida archazorlar uchraydi. 2800-3000 m dan balandda qo'ng'irbosh, rang, yovvoyi arpa kabi o'tlar o'suvchi yaylov mintaqasi boshlanadi. Sirdaryo bo'yidagi to'qaylarda yulg'un, tol, turong'il, jiyda kabi butalar o'sadi.

Yuqorida aytib o'tilgan tabiiy qulayliklar tufayli Ustrushona hududi ham O'rta Osiyoning boshqa dehqonchilik vohalari kabi qadimdan jadal o'zlashtirilgan. Bunga, Forish tumanining "CHimqo'rg'on" jamoa xo'jaligi hududidan topib o'rganilgan, o'rta paleolit davrida yashagan neandertal odamlar tomonidan Qayroqtoshdan ishlangan va o'lchami 54 x 53 x 21 mm bo'lgan nukleus – tosh o'zaklar qoldiqlarini, CHordara, Ko'ksuvtepa shaharchalari atroflaridan hamda Yettisoy vohasidan topilgan o'rta paleolit davridan to tosh davrining yakunlovchi bosqichi - neolitgacha bo'lgan davrga oid arxeologik ashyolarni, hamda Tuzkon ko'li atroflari, Qolgansir sho'rko'li g'arbiy qismlari va Xon – Chorvoq darasidan neolit davriga oid chaqmoqtoshdan yasalgan tosh qurollar hamda bronza davriga tegishli sopol buyum parchalarini misol keltirishimiz mumkin. Mazkur qadimiy ashyolar ushbu hudud ham o'zining ilk odamzod izlari bilan bog'liq ibtidoiy tarixiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ustrushona hududida so'nggi bronza va ilk temir davriga

kelib o'zida shahar belgilarini mujassam qiluvchi yirik manzilgohlar barpo etila boshlanadi. Inson faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlar tufayli Ustrushonada ham ilk temir davri, xususan, mil. avv.gi VII-VI asrlarda shahar qurilishiga asos solinib, fanda "Nurtepa madaniyati" nomi bilan qayd etilgan, ilk shaharmonand manziloh Nurtepa vujudga kelgan. O'rta Sirdaryo havzasida o'troq turmush tarziga o'ta boshlagan ko'chmanchi qabilalar, vaqt o'tishi bilan esa Ustrushona hududining boshqa qismlariga, xususan tog' oldi hududlariga (Xontepa, Qo'rg'ontepa) ham yoyila boshlagan. Hududda joylashgan arxeologik yodgorliklarda (Nurtepa, Xontepa, Qaliyatepa va boshqalar) aniqlangan me'moriy inshootlar: yerto'la, yarim yerto'la va yer usti inshootlari ham so'nggi bronza, ilk temir davrlarida bu yerda ko'chmanchi aholining o'troqlashuv jarayoni boshlanganligidan dalolat beradi. Nurtepa madaniyatning ta'siri ostida Kiropol deb e'tirof etilgan, mil. avv.gi VI asr boshlarida asos solingan Mug'tepa, Aleksandr Makedonskiyga qarshi qo'zolon ko'targan shaharlar sifatida qayd etilgan, Kurkatdagi SHirin, Savatdagi Xontepa, Sog'anoqtepa I, II kabi ilk shahar yodgorliklari bunyod etilgan. Tabiiyki, qadimdan voha va uning atrofidagi dashtliklarda yashovchi chorvador aholining Ustrushonadagi madaniy taraqqiyot jarayonlariga ta'siri katta bo'lgan. Bu aholi avvalo, Evro Osiyoning bepoyon kengliklari va bu ulkan hududlarda yashovchi ko'chmanchilar olami bilan kuchli bog'langan edi. Mavsumiy tarzda ko'chuvchi chorvadorlar uzoq shimol o'lkalarigacha borar, qishda esa qishlovlariga qaytib, Ustrushonaning dehqonchilik vohalari va hatto janubiy mintaqalar bilan ham bog'lanib turardi.

Ustrushonaning dehqonchilik vohalari haqida bayon qiluvchi, ilk yozma xabarlar qadimgi yunon tarixchilarining Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari haqidagi asarlarda yoritilgan. Bu manbalarning aksariyatida, Eron shohi Kir davrida qurilgan yetti shahar va bu shaharlarning bir-biri bilan bog'liq holda Aleksandrqa qarshi qo'zg'olon ko'targanligi haqida malumotlar berilgan. Ularda yoritilishicha, Maroqand va uning atrofidagi qishloqlarni o'ziga tobe qilgan Aleksandr ko'p sonli armiyasi bilan Ustrushona orqali Sirdaryo tomon yurish qiladi. Oldingi pozitsiyadagi oziq-ovqat va otlarga yem-xashak yig'uvchi makedon otryadini mahalliy axoli (ustrushonlar) butunlay qirib tashlaydi va ko'tarilish juda qiyin bo'lgan tik qoyali tog' ustiga chiqib ketishadi. Aleksandr bu qoyani katta qiyinchilik va talofat bilan egallaydi. Jang paytida uning o'zi ham qattiq yaralanadi. Ustrushonaning tog'li qoyalarda ilk bor mag'lubiyat alamini tortgan Aleksandr, o'zining jahonda tengsiz hisoblagan armiyasini tog'lik qoyalarda jang olib borish taktikasi kuchli emasligini anglab qolgan. Ustrushonaliklar esa bunday qoyalarda jang olib borishni nihoyatda yaxshi o'zlashtirgan edilar. Biroq, Aleksandr qo'shinlarining bir necha baravar ko'pligi va ularning zamonaviy qurollanganligi urush taqdirini hal qiladi. Arrianning yozishicha, - "Tog' cho'qqisidagi ximoyachilarni bir qismi joyida qirib tashlanadi, ko'plari dushman qo'lga tushmaslik uchun qoyadan o'zlarini tashlab halok bo'lishadi".

Antik tarixchilardan Strabon (mil. avv. I asr) birinchi bo'lib O'rta Osiyo ko'chmanchi xalqlarini umumiy bitta (skif) nomi bilan emas alohida hududiy joylashishiga qarab, mayda guruhlarini ham sanab ko'rsatadi. Uning yozishicha "Skiflarning katta qismi Kaspiydan

boshlab sharqqa tomon daxlar deyiladi. Ulardan sharqda esa sak va massaget yashaydi". Dionisiy Perieget ko'chmanchilar haqida shunday ma'lumot beradi, "So'g'd ortida YAKsart daryosi bo'ylab barcha kamonda jang qiluvchilar orasida eng mohiri va bexato otuvchilari hisoblangan saklar yashaydi". Yuqoridagi ma'lumotlardan So'g'diyonaning sharqiy chegaralari Sirdaryoning chap sohili bo'ylab o'tganligi ko'rinadi. I.V. Pyankov ma'lumotlariga ko'ra, antik davr tarixchilari O'rta Osiyo ko'chmanchilarini quyidagicha tasavvur etgan: O'rta Osiyoning g'arbida cho'l va dasht qismlarida "Massaget" ("Derbik") qabilalari ..., sharqida tog' va dasht qismlarida "Sak" qabilalari ..., Tanais (Sirdaryo) bo'ylari va uning nariyog'ida "Dai"lar istiqomat qilishgan. Ustrushonada antik davrning mil. avv. tarixiy voqealari haqida bizgacha, asosan, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar etib kelgan. Keyingi uzok, davr mobaynidagi tarixiy yozma manbalarda Ustrushona haqida xabarlar uchramaydi.

Keyingi yillarda nafaqat Evro Osiyoning Xitoyga chegaradosh hududlari balki O'rta Osiyo haqida ham Xitoy yozma manbalari qimmatli ma'lumotlar borligi ma'lum bo'ldi. Qadimgi Xitoy podsholiklarida mil. avv. 2205 yildan boshlab SHimoliy Xitoydagi kichik xokimliklar tarixini yoza boshlagan «shi» deb atalgan yilnomachilar g'arbiy va shimoliy chegaralarda «xu» yoki «xulu» deb atalgan chorvador turkiy zabon qabilalar yashaganliklarini takidlaydilar. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu joylarda, ya'ni SHimoliy Xitoy kichik podsholiklarining shimoliy va g'arbiy chegaralarida andronovo madaniyati qabilalari keng tarqalgan edi.

Xitoy yilnomalarida ko'chmanchi sak qabilalari tomonidan asos solingan Qang' konfederatsiyasi va Sirdaryo havzasidagi mulklar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. CHjan-Syanning yozishicha, Qang' 90000 kishilik qo'shinga ega bo'lib uning farg'onaliklarga yordamga kelishi xitoyliklarning Farg'ona poytaxtini qamal qilishdan voz kechishiga sabab bo'ladi. Qang'ning markazi Farg'onaning poytaxti Guyshan shahrida 200 li (taxminan 1000 km) shimoli - g'arbda joylashgan. Boshqa bir Xitoy manbasi – Syan-Xan-shuda, Ansi (Parfiya) shimolda Qang'uy bilan chegaralangan deyiladi.

Qadimda saklar atab kelingan Ustrushona va uning atrofida yashovchi turkiy chorvador qabilalar o'rta asr manbalarida o'g'uzlar deb ataladi. Abu Nasr Al-Utbiy Samarqand amiri Abu Ibroxim Muntasir bilan Qoraxoniylar eloqxoni o'rtasida bo'lib o'tgan janglar haqida ma'lumot berib, O'rta Sirdaryo bo'yi chap sohillari, Ustrushonaning shimoliy va g'arbiy chegaralarida yashovchi chorvador o'g'uzlar va ularning (Ustrushona) dehqonchilik vohalari bilan aloqalari haqida yozgan. Ibn Havqal "bu (Zomin) shaharning orqa tomoni Ushrusana tog'lariga, oldi tomoni esa g'uzlar mamlakatiga qaragan. U tekis dashtdan iborat bo'lib, unda tog'lar yo'q" deb ma'lumot beradi. N.N.Negmatov ham IX-X asrlarda o'g'uzlar Ustrushonaning shimoliy-g'arbiy chegaralari, Mirzacho'l dashtlari va Sirdaryo bo'ylab ko'chib yurishganligini ta'kidlab o'tgan.

Ustrushonada barcha paytlarda chorvador aholi bilan dehqon aholining aloqalari faol kechib, u O'rta Osiyo dehqonchilik vohalari va Evro Osiyoning bepoyon dashtliklari aloqasida muhim ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqi. / Xalq so’zi. 2017 yil 16 iyun.
2. Pardaev M.H., To’ychiboev B.B. Ustrushona qadimda va ilk o’rta asrlarda. Toshkent, 2017,.
3. Toshboyev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati. Toshkent, 2014. B.10
4. Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. –Ташкент: Узбекистан, 1978. – Б. 6-8.
13. Дехканов, К. М., Игамбердиева, Г., & Махмудов, Н. И. (2022). ПРОФИЛАКТИКА И ЛЕЧЕНИЕ РАНЕВОЙ ИНФЕКЦИИ ПРИ ОТКРЫТЫХ ПЕРЕЛОМАХ КОСТЕЙ ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНОГО АППАРАТА. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 388-394.
14. Махмудов, Н. И., Карабоев, М. К., Маманабиев, Ю. Т., & Игамбердиева, Г. (2022). ИНФОРМАЦИОННО-КОМПЬЮТЕРНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ ОТДЕЛА ПЕРЕЛИВАНИИ КРОВИ В ФФРНЦЭМП. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 382-387.